



Majitov Maxmud Abdimo'min o'g'li,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazi Surxondaryo viloyati mintaqaviy filiali direktori, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

MA'NAVIY TARBIYA – INSON SHAXSINI KAMOL TOPTIRISH OMILI

Annotatsiya. Maqolada inson shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi subyektiv omillardan biri bo'lmish aniq maqsadga yo'naltirilgan tarbiya jarayoni haqida so'z boradi. Muallif tomonidan inson shaxsi mutlaqo o'zgarmas fenomen emasligi ta'kidlanib, uning tarkibidan joy olgan elementlar insonning butun umri davomida shakllanib va takomillashib borishi yoritilgan. Xususan, maqolada inson shaxsining shakllanishi, kamol topishida aniq maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat ya'ni tarbiyaning o'rni ochib berilgan. Jumladan, uzluksiz ma'naviy tarbiya yagona maqsadga bo'ysundirilganida, har bir subyekt umumiy maqsadning aniq bir qismini mufassal bajarganidagina mazkur subyektiv omilning samarasi baland bo'lishi ilmiy asosda yoritib berilgan.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, ma'naviy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, uzluksiz ma'naviy tarbiya, ta'lim, inson, shaxs, ma'naviyat, ma'rifat, mafkura, jamiyat, postmodern jamiyat, konsepsiya, qadriyat, axloq, yoshlar.

Аннотация. В статье рассматривается процесс целенаправленного воспитания, который является одним из субъективных факторов, влияющих на формирование личности человека. Автор подчеркивает, что человеческая личность не является абсолютно неизменным явлением, и подчеркивает, что содержащиеся в ней элементы формируются и совершенствуются на протяжении всей жизни человека. В частности, в статье раскрывается роль целенаправленной сознательной деятельности в формировании личности человека, ее развитии. В частности, научно установлено, что эффективность этого субъективного фактора высока только тогда, когда непрерывное духовное образование подчинено единой цели, когда каждый предмет выполняет определенную часть общей цели в деталях.

Ключевые слова: воспитание, духовное воспитание, социальное воспитание, непрерывное духовное воспитание, образование, человек, личность, духовность, просвещение, идеология, общество, постмодернистское общество, концепция, ценность, нравственность, молодежь.

Annotation. The article examines the process of purposeful education, which is one of the subjective factors that affect the formation of a human's personality. The author emphasizes that the human personality is not an absolutely unchanging phenomenon, and emphasizes that the elements contained in it are formed and improved throughout a person's life. In particular, the article reveals the role of purposeful conscious activity in the formation of a human's personality, its development. In particular, it has been scientifically established that the effectiveness of this subjective factor is high only when continuous spiritual education is subordinated to a single goal, when each subject fulfills a certain part of the general goal in detail.

Keywords: upbringing, spiritual education, social education, continuous spiritual education, education, man, person, spirituality, enlightenment, ideology, society, postmodern society, concept, value, morality, youth.

Kirish. Ta'lim postmodern jamiyat tendensiyalarining shaxs ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sirini kamaytiruvchi naqadar qudratli vosita bo'lsa, tarbiya ham aynan shunday ahamiyatga molik omildir. Chunki uning yordamida shaxs ijtimoiy mohiyatidan joy olgan

barcha elementlarni shakllantirish, o'zgartirish va takomillashtirish mumkin bo'ladi. Shuningdek, tarbiya insonni butun umri davomida jamiyat manfaatlari, uning ta'siri doirasida saqlab turish imkonini beradi. Aynan shuning uchun ham barcha zamonlarda uning mazmuni va mohiyati, shakllari

va yoʻnalishlari mufassal tadqiq qilingan, turli gʻoyalar, nazariyalar, tavsiyalar ilgari surilgan. Postmodern jamiyat sharoitida esa tarbiya masalalari yanada dolzarblashmoqda. Chunki yangi asrda shaxs hayotiy maqsadlari, bilimlari, koʻnikmalari, eʼtiqodi, xislatlari, fazilatlarini, hayotiy pozitsiyasini gumanizm, ijtimoiy progress doirasida saqlab turishning bundan-da samaraliroq, taʼsirchanroq omili qolmayapti.

Maqsad va uni asoslash. Zamonaviy falsafa, psixologiya va pedagogikada shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni determinizm prinsipi nuqtayi nazaridan tadqiq qilinmoqda. Bizga maʼlumki, determinizm voqelik hodisalarining aloqadorligi va oʻzaro shartlanganligi haqidagi taʼlimotdir. U narsa va hodisalarni konseptual va tarkibiy tahlil qilish bilan cheklanmasdan, ularni voqelikdagi boshqa jarayonlar bilan aloqadorlikda oʻrganish zarurligini uqtiradi.

Determinizm haqidagi tasavvurlar ilmiy uslub tarkibiga kiradi. Bu tasavvurlar tadqiqotni turli shart-sharoit, sabab va qonuniyatlar, tabiat, jamiyat va tafakkurdagi har qanday oʻzgarishlarni aniqlash hamda tahlil qilish asosida amalga oshirishga undaydi. Determinizm asosini esa sababiyat va qonuniyatlar konsepsiyasi tashkil etadi¹.

Tadqiqotda obyektivlik va sistemaviylik prinsiplariga tayanilgan holda, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy usullardan foydalanilgan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

“Tarbiya” tushunchasiga berilgan taʼriflar turli-tumanligi bilan xarakterlanadi. Biroq barcha mutaxassislar tarbiya inson ongi va faoliyatiga taʼsir koʻrsatish jarayoni ekanligini qayd qiladilar. Mazkur taʼsir jarayoni ayrim hollarda maqsadga muvofiq tarzda (aytaylik, maʼlum tarbiya subyektlarining jamiyat manfaatlariga mos holda amalga oshirgan tarbiyaviy ishlari orqali), boshqa vaziyatlarda stixiyali, tasodifiylik elementlari ishtirokida (masalan, koʻcha-koʻyda yuz bergan voqealar, tasodifan kuzatilgan jarayonlar va hokazo) sodir boʻladi. Inson ongi va faoliyatiga maqsadga muvofiq tarzda koʻrsatilgan taʼsirning ijtimoiy ahamiyatga molik tarbiya sifatida tan olish mumkin.

¹ Степина В., Семигина Г. Новая философская энциклопедия. В 4-томах. Том 2. — Москва: Мысль, 2010. — С. 631.

Tabiiyki, tarbiya muayyan maqsadlarni koʻzlab amalga oshiriladi. Odatda tarbiyaning asosiy maqsadi inson shaxsini kamol toptirish bilan bogʻlanadi. Lekin jamiyatda shaxs haqidagi tasavvurlar oʻzgara borgan, shaxsning u yoki bu fazilatlarini, ijtimoiy pozitsiyasiga ehtiyoj ortgani sayin tarbiyaning maqsadi ham oʻzgaradi. Shuni nazarda tutgan holda mutaxassislar “tarbiya maqsadlari harakatchan, oʻzgaruvchan, konkret-tarixiy xarakterga ega, u jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlaridan kelib chiqadi va ishlab chiqarish usullariga, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot surʼatlariga, pedagogik nazariya va amaliyotning rivojlanganligi darajasiga, jamiyat, taʼlim va tarbiya muassasalari, oʻqituvchilar va oʻquvchilarning imkoniyatlariga bogʻliq boʻladi”, — deb taʼkidlaydilar².

Tarbiya jarayonining uch asosiy xususiyati mavjud³. Birinchidan, tarbiya davomida shaxs jamiyatda qabul qilingan faoliyat normalari, anʼanalar, jamoatchilik fikrini oʻzlashtiradi. Bunday ijtimoiylashuv jarayoni unga jamiyatda turmush kechirish, oʻz manfaatlarini jamiyat manfaatlarini bilan uygʻunlashtirish, oʻz xulqini umumeʼtirof etilgan qoidalarga muvofiqlashtirish imkonini yaratadi. Shuning uchun ham mazkur norma va qoidalardan voqif shaxs “tarbiya koʻrgan” deb aytiladi.

Ikkinchidan, tarbiya davomida inson oʻz shaxsiyatini anglab yetadi, uning eʼtiqodi, dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi, fazilat va xislatlari shakllanadi. Ushbu jarayon mobaynida u oʻzini qadrlashga, oʻzgalardan farqlashga oʻrganadi. Vaholanki, ushbu xususiyatlarni oʻz maʼnaviy qiyofasida mujassam qilgan insonning shaxs sifatida eʼtirof etamiz.

Uchinchidan, tarbiya davomida shaxs jamiyatda oʻz oʻrnini topishga, muayyan maqsadlarga erishishga odatlanadi. U faqat ijtimoiy voqelikka mos-lashish bilan cheklanmasdan, oʻzgalarga oʻz fikrini, hayotiy pozitsiyasini yetkazishga intiladi, oʻz hayotiy prinsiplariga mutanosib ravishda ijtimoiy faoliyat koʻrsata boshlaydi.

² Писаренко В. И. Проблема воспитания в современной педагогике // Известия ЮФУ. Технические науки, 2013. — №7. — С. 232.

³ Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика. — Москва: Школьная пресса, 2002. — 576 с.

Tarbiya turli shakllarda (aqliy, axloqiy, huquqiy, estetik, mehnat va hokazo) amalga oshiriladi. “Tarbiyaning barcha shakllari ma’naviyatga oid hodisadir, chunki u inson ongi va tafakkuriga ta’sir ko’rsatish, unga aniq amaliy, kasbiy yoki g’oyaviy-e’tiqodiy bilim berish, nimanidir o’rgatish, nimagadir ixlosni, ezgulik, go’zallik, adolat kabi yuksak ideallarni, ishonchni qaror toptirish orqali insonning o’zini inson sifatida shakllantiradi”⁴.

Qanday shaklda amalga oshirilmasin, tarbiyaning muhim ijtimoiy funksiyalaridan biri shundaki, u jamiyatdagi vorisiylikni ta’minlaydi. “Hech bir avlod hamma bilim va ko’nikmalarni, kashfiyotlarni, ajdodlar qo’lga kiritgan yutuqlarni yangidan ixtiro qilmaydi. Har bir avlod jamiyat shu paytgacha erishgan barcha yutuqlarni tayyor holda o’zlashtiradi, o’z hayoti, faoliyati davomida ularni biroz takomillashtiradi, boyitadi va keyingi avlodga (bola-chaqasiga) ulardan foydalanishni o’rgatadi”⁵. Milliy an’analar, urf-odatlar va qadriyatlarining yo’qolib ketish xavfi kuchayayotgan, shaxsning asrlar davomida ulug’lab kelingan xislat va fazilatlarini, bilim va e’tiqodiga putur yetayotgan postmodern jamiyat sharoitida ushbu ijtimoiy funktsiyaning ahamiyati nihoyatda beqiyos bo’lmoqda. Binobarin, tarbiya postmodern jamiyat sharoitida inson shaxsini kamol toptirishning muhim omilidir.

Postmodern jamiyat tendensiyalarining salbiy oqibatlaridan inson shaxsini himoyalashda tarbiyaning barcha shakllari o’ziga xos o’rin va ahamiyatga ega, albatta. Biroq insonning shaxs sifatida kamol topishida ma’naviy tarbiyaning o’rni ayriyachidir.

Ma’naviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning alohida shakli emas. U jamiyatda amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ta’sirning xarakterini ifodalovchi tushunchadir. Uning asosiy maqsadi insonni o’zini anglovchi, hayotiy maqsadlarini aniq biluvchi, bu maqsadlarga eltuvchi bilim va malakalardan voqif, gumanistik e’tiqod va hayotiy pozitsiyaga ega, mustaqil hayot kechirishga hozir shaxsni shakllantirishdan iborat. Ma’naviy tarbiya insonning mohiyatini tashkil etuvchi belgilarni rivojlantirishga

xizmat qiladi. “Insonning asl tabiati haqida gap ketganda, quyidagilarga urg’u beriladi:

– inson – ongli, aqli mavjudot;

– inson – bioijtimoiy mavjudot, u faqat jamiyatdagina shakllanadi, jamiyatdan tashqarida inson bolasi halok bo’lmay qolganda ham, hayvondan farq qilmaydigan mavjudot bo’lib yetishadi;

– inson – yaratuvchi mavjudot;

– inson – ehtiyojlari uzluksiz o’sadigan, yuksaladigan mavjudot. Insonning ongi, tafakkuri uning uchun birinchi mohiyatli belgi ekan, ma’naviy tarbiya ularni yanada rivojlantirishga, yuksaltirishga xizmat qilishi kerak”⁶.

Ma’naviy tarbiya inson umrining muayyan davrinigina qamrab oladigan fenomen emas. U shaxsning butun hayoti mobaynida davom etadi, shu boisdan umrining turli pallalarida turli subyektlar tomonidan amalga oshiriladi. Jumladan, ma’naviy-tarbiyaviy faoliyat bilan oila, mahalla, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta’lim maktablari, o’rta maxsus ta’lim maskanlari, oliy ta’lim muassasasi, mehnat jamoasi, davlat va jamoat tashkilotlari va shu kabilar shug’ullanadi.

Ma’naviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning turli shakllaridan ayri holda amalga oshirilmaydi. Aksincha, insonga o’zligini anglatishga qaratilgan aqliy, axloqiy, huquqiy, estetik, mehnat va boshqa tarbiyani ma’naviy tarbiyaning ham shakllari sifatida qayd etish mumkin. Uning asosiy vositalari ommaviy axborot vositalari, fan, adabiyot, tasviriy san’at, kino, teatr, muzey va shu kabilardan tarkib topadi. Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ijtimoiy ehtiyojga monand ravishda ma’naviy tarbiyaning u yoki bu shakli ustuvorlik ahamiyat kasb etishi, u yoki bu vositasidan kengroq foydalanilishi, hatto ma’lum muddat mafkuraviy tus olishi, ya’ni biror bir mafkura pozitsiyasidan amalga oshirilishi mumkin. Biroq ushbu evrilishlardan qat’i nazar ma’naviy tarbiya jamiyat rivojining barcha davrlarida insonni o’zini anglash sari yetaklaydigan jarayon bo’lib qolaveradi.

Kishilik jamiyatining barcha davrlarida ma’naviy tarbiya insonni komillik sari undovchi muhim omil vazifasini o’tab keldi. Komil inson

⁴ Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва праксиологияси. 2-китоб. — Тошкент: Маънавият, 2018. — Б. 323.

⁵ O’sha asar.

⁶ Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва праксиологияси. 2-китоб. — Тошкент: Маънавият, 2018. — Б. 347.

to'g'risidagi tasavvurlar to'lishib borgani sayin uning mazmun-mohiyati ham o'zgarib, yangilanib bordi. Xususan, qadimgi dunyoda komillik aqliy va jismoniy yetuklik bilan bog'landi, o'rta asrlarda u a'lo fazilatlariga ega bo'lgan inson sifatida tasvirlandi, yangi zamonda komillikning muhim talabi ma'rifatlilikdan iborat, deb ta'kidlandi, XX asrda hayotda o'z o'rnini topgan, omadli inson ideal shaxs deb ataldi. Ma'naviy tarbiya esa har safar komillik haqidagi o'z zamonasiga mos bo'lgan ideallarga yetaklovchi qudrat bo'lib kelaverdi.

Bizning davrimizga kelib, ma'naviy tarbiyaga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj nihoyatda oshdi. Chunki, biz avvalgi bobda ta'kidlab o'tganimizdek, postmodern jamiyatning ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy tendensiyalari shaxsni hayotiy maqsadlardan mosuvo qilmoqda, uning tafakkuriga fragmentar xarakter baxsh etmoqda, hayotiy pozitsiyasiga putur yetkazmoqda, mustaqil inson sifatida kamol topishiga xalal bermoqda. Shuni nazarda tutgan holda Erix Fromm: "O'n to'qqizinchi asrda qul bo'lib qolish xavfi mavjud edi, yigirmanchi asrda bu xavf yo'qoldi, lekin boshqa xatar – robotlarga aylanib qolish xavfi tug'ildi", – deb yozgan edi⁷. Ma'naviy tarbiya esa shaxs ijtimoiy mohiyatining aynan ana shu elementlarini mustahkamlovchi qudratdir. Biroq ko'zlangan natijalarni bermog'i uchun u tarbiya subyektlari tomonidan to'g'ri, oqilona, zamon talablariga monand ravishda amalga oshirilmog'i, insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan bo'lmog'i, maqsadga muvofiq omil va vositalarga tayanmog'i, insonning butun umri davomida uzluksiz tarzda olib borilmog'i dardkor.

Afsuski, keyingi yillarda G'arbning rivojlangan mamlakatlarida ma'naviy tarbiyaga e'tiborning susaygani, uning deformatsiyasi kuzatilmoqda. Chunki "G'arb mamlakatlarida inson tarbiyasi masalasi ko'proq malakaviy talablar, ta'lim standartlari, inson huquqlari va erkinliklari kabi masalalar bilan almashtirildi. Natijada ta'lim-tarbiya va umuman jamiyat hayoti markaziga insonning barcha ehtiyojlarini (zo'ravonlikdan tashqari), nafaqat o'ta ko'p miqdordagi moddiy buyumlar, xizmatlar iste'molini, shuningdek, nosog'lom

⁷ Фромм Э. Инсоннинг hozirgi holati // Жаҳон адабиёти, 2000. – №1. – Б. 116.

jinsiy moyilliklarni qondirishga qaratilgan vulgar antroposentrizm qo'yila boshlandi. Gumanistik va diniy tushunchalardagi mavhum idealistik antroposentrizm vulgar materialistik, go'yoki ezgulik va yovuzlikdan tashqarida turuvchi, amalda aksilma'naviy antroposentrizm bilan almashdi"⁸. G'arb ma'naviy inqirozining asl sabablaridan birini aynan ana shundan izlamoq kerak. To'g'ri, bugungi G'arb dunyosi boshidan kechirayotgan ma'naviy inqiroz ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy va boshqa omillarning oqibati, albatta. Lekin bu o'rinda insonni shaxs sifatida kamol topishiga, undagi insoniylik belgilarini asrashga xizmat qiladigan ma'naviy tarbiyaga e'tiborsizlik ham jiddiy sabablardan biri bo'ldi. Shu sababli ham bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda postmodern jamiyat tendensiyalarining shaxsiga salbiy ta'sirini kamaytirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, Buyuk Britaniyada "Tafakkur", "Xulq ta'limi", BAAda "Axloq ta'limi", Singapurda "Fe'l-atvor va fuqarolik ta'limi", Yaponiyada "Axloq ta'limi", Hindistonda "Qadr-qimmat ta'limi"⁹ fanlari maktablarda o'qitilmoqda.

O'zbekistonda ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni tizimli ravishda yo'lga qo'yish masalasi mustaqillikning ilk yillaridanoq davlat rahbari va hukumatning diqqat markazida bo'ldi. Chuqur iqtisodiy islohotlarni amalga oshirayotgan mamlakatda moliyaviy tanqislik hukm surayotganiga qaramasdan, avvalo, ushbu tizimning moliyaviy ta'minoti yo'lga qo'yildi. Iqtisodiy islohotlarning eng qizg'in bosqichlarida ham davlat ma'naviy-tarbiyaviy ishlarga mablag'ni ayamaganligi e'tiborga loyiq. "Biz uchun ma'naviyat, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma'naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo'lishi lozim. Shuning uchun ham biz xalqning ma'naviyatiga zarar yetkazgan holda mablag'ni tejay olmaymiz", – deb yozgan edi mamlakatning birinchi Prezidenti I.Karimov¹⁰.

⁸ Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва праксиологияси. 2-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2018. – Б. 347.

⁹ Замонавий дарсликлар қандай бўлиши керак? // <https://www.uza.uz> (2020 йил 8 июль).

¹⁰ Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли // Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат мафкура. Том 1. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 331.

Shuning bilan bir qatorda, mamlakatda ma'naviy tarbiyaning konseptual asoslari ham shakllantirildi. "Ma'naviyatni rivojlantirish konsepsiyasi tub islohotlar nazariyasi doirasida milliy tiklanish va yosh avlodni mustaqillik g'oyalari sodiqlik ruhida tarbiyalash zaruriyati va amaliyoti bilan chambarchasligida yaratildi"¹¹. Bunday konseptual yondashuv yurtimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni ijtimoiy islohotlarning muhim yo'nalishiga aylantirdi.

Mustaqillik yillarida ma'naviy-tarbiyani amalga oshiruvchi yaxlit tashkiliy tizim shakllandi. Xususan, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, "Kamolot" yoshlar harakati, Ma'naviyat va ma'rifat markazi kabi tashkilotlarning tashkil qilinishi, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim maktablari, kollej va litseylar, oliy ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun mas'ul bo'lgan shaxslarning belgilanishi va tegishli bo'limlarning vujudga keltirilishi shaxsni butun umri davomida jamiyatning ma'naviy ta'siri ostida saqlab turishga xizmat qiladigan tizimni yaratishga xizmat qildi.

O'tgan asrning oxiri yangi asrning boshlarida milliy istiqlol g'oyasining ifodalab berilishi, uning ilmiy-metodologik, didaktik asoslari yaratilishi uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga g'oyaviy yo'nalganlik ato qildi. Bu boradagi dolzarb nazariy muammolar, amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar uning asar va ma'ruzalarida bayon qilib borildi. Xususan, I.Karimovning "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" nomli ma'ruzasida milliy g'oyaning odamlarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdagi o'rni, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli ma'ruzasida uning avlodlar o'rtasidagi vorisiylikni ta'minlashdagi roli, "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin" nomli intervyusida milliy g'oyaning ijtimoiy islohotlar va milliy tiklanishdagi ahamiyati, "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" nomli intervyusida milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasining maqsad va vazifalari, tushuncha va tamoyillari asoslab berildi. Nihoyat, uning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli

asarida milliy g'oya va mafkura konsepsiyasini ijtimoiy taraqqiyot talablariga monand ravishda muttasil takomillashtirib bormoq zarurligi uqtirildi¹².

2019-yilning 3-mayida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi mamlakatdagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish imkonini yaratdi. Qarorda "Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor" qaratilayotgani ta'kidlab o'tiladi¹³.

Qarorga muvofiq "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" ishlab chiqildi va 2019-yilning 31-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori bilan qabul qilindi. Hujjatda qayd etilishicha, "konsepsiyaning maqsadi – yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikma va fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iborat"¹⁴. Konsepsiyada quyidagilarni amalga oshirish muhim vazifa sifatida e'tirof etiladi: a) ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish; b) tarbiya onaning homiladorlik davridan boshlanib bola voyaga

¹² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари // Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. Том 3. — Тошкент: Ўзбекистон, 1996. — Б. 3-54; Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. Том 7. — Тошкент: Ўзбекистон, 1999. — Б. 132-154; Каримов И.А. Жамиятимиз мафкурasi халқни — халқ, миллатни — миллат қилишга хизмат этсин // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. Том 7. — Тошкент: Ўзбекистон, 1999. — Б. 84-102; Каримов И.А. Миллий истиклол мафкурasi — халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз. Том 8. — Тошкент: Ўзбекистон, 2000. — Б. 489-508.

¹³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. "Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" // Халқ сўзи (2019 йил 4 май).

¹⁴ Узлуksиз маънавий тарбия концепцияси // Халқ сўзи, (2020 йил 3 январь).

¹¹ Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва праксиологияси. 2-китоб. — Тошкент: Маънавият, 2018. — Б. 287.

yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish; d) bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish; e) tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish; f) ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish; g) ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi¹⁵.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 340-sonli qaroriga muvofiq Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Mazkur Qarorga ko'ra Institut "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan g'oya asosida mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, aholi, ayniqsa, yoshlarni Vatanga muhabbat, ma'naviy merosimiz, milliy adabiyotimizga hurmat ruhida tarbiyalash g'oyasini hayotga tatbiq etish ishlarini ilmiy-metodik va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlash faoliyatini amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi¹⁶.

Shunday qilib, so'nggi 30 yil davomida O'zbekistonda uzluksiz ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishda quyidagi natijalarga erishildi:

a) mamlakatda uzluksiz ma'naviy tarbiyaning moddiy-moliyaviy ta'minoti vujudga keltirildi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning moddiy-texnika bazasi yaratildi;

b) fuqarolar, xususan, yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy-tarbiyaviy ishlarning konseptual asoslari – g'oyalari, tushuncha va tamoyillari ishlab chiqildi;

d) O'zbekistonda fuqarolarning barcha qatlamlarini qamrab olish imkonini beruvchi uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi barpo etildi;

e) O'zbekistondagi uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi muttasil takomillashib boruvchi yaxlit tizimga aylantirildi.

Biroq bu bilan uzluksiz ma'naviy tarbiya borasida barcha muammolar tugallanib bartaraf etildi, mazkur masala kun tartibidan olindi, degan xulosa chiqarishdan yiroqmiz. Jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy vaziyatning o'zgarib borayotgani, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning tobora chuqurlashayotgani, postmodern jamiyat tendensiyalarining shaxs dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sirining oldini olish zaruriyatining ortayotgani bu borada yangidan yangi muammolarni hosil qilmoqdaki, ularni aniqlash va bartaraf qilish bugungi kunda shaxs kamolotini ta'minlashning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan uzluksiz ma'naviy tarbiyani takomillashtirish borasida quyidagi masalalarga alohida e'tibor berish zarur, deb hisoblaymiz.

Birinchidan, ma'naviy tarbiya qadriyatlarini postmodern jamiyat sharoitida tobora yorqinroq namoyon bo'lib borayotgan psevdoqadriyatlardan ajrata bilish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilmog'i darkor. Ma'lum bir g'oya yoki tushuncha, me'yori yoki qoida, urf-odat yoki an'ana shaxs va jamiyat manfaatlariga xizmat qilsa, uning orzu-umidlariga payvand bo'lsa, manfaatlarini o'zida mujassam etsa, intilishlarining tub mazmunini belgilab bersagina qadriyat sifatida baholanishi mumkin. Aks holda bunday g'oyani, me'yorni, an'anani qadriyat sifatida tan olish mushkul. Asl qadriyatni soxta, psevdoqadriyatlardan ajratib olish uchun esa bu borada yetarli bilim va malakaga, keng dunyoqarashga, yuksak madaniy saviya va salohiyatga ega bo'lish zarur bo'ladi.

Bugungi kunda psevdoqadriyatlarni asl qadriyat sifatida taqdim qilish hollari ko'plab uchramoqda. Bunday yondashuv dinni niqob qilib olgan ekstremistik guruhlar targ'ibot ishlarida, ayniqsa, ko'zga tashlanadi. Din aqidalarini buzib ko'rsatish, uni muayyan guruh maqsad-muddaolariga, manfaatlariga moslab talqin qilish hollari bisyor. Yetarli diniy bilimga ega bo'lmagan minglab kishilar

¹⁵ Узлуksиз маънавий тарбия концепцияси // Халқ сўзи, (2020 йил 3 январь).

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 июндаги "Республика Маънавият ва маърифат маркази ҳузуридаги Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти фаолиятини ташкил этиш тўғрисида" ги 340-сон қарори // <https://lex.uz/docs/5443067>.

bunday soxta talqinlarni asl qadriyat sifatida qabul qilmoqdalar, ularni o'z faoliyatlarining g'oyaviy asosiga aylantirmoqdalar. Shuni nazarda tutgan holda, davlat rahbari o'zining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida: "Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatarga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz", – deb ta'kidlagan edi¹⁷.

Postmodern jamiyat sharoitida asl qadriyatlarni psevdoadriyatlardan ajrata bilmaslik illati faqat din bobida namoyon bo'layotgani yo'q. Bu hol ijtimoiy turmushda inson hayoti uchun zarur bo'lgan ne'matlarni zo'rlab tiqishtirilgan mahsulotlardan farqlay olmaslik, ilm-fanda sof ilmiy nazariyalarni g'ayriilmiy g'oyalardan tafovutlay bilmaslik, adabiyot va san'atda tom ma'noda shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi durdonalarni primitiv asarlardan ajrata olmaslik shaklida ko'zga tashlanmoqda. Mazkur hollarning bizning jamiyatimizda ham namoyon bo'layotgani mamlakatdagi ma'naviy tarbiya tizimida hali jiddiy muammolar borligidan dalolat beradi. Binobarin, kishilarda qadriyatlarni psevdoadriyatlardan ajrata bilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, uni ma'naviy-tarbiyaviy ta'sir subyektlari faoliyatining alohida yo'nalishiga aylantirish zarur. Ushbu subyekt larning tegishli yillik rejalari tuzilayotganda mazkur tavsiya inobatga olinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Ikkinchidan, ma'naviy tarbiya milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qilmog'i lozim. Ma'lumki, har qanday milliy qadriyat uning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllanadi, turli obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida sayqal topa boradi. Milliy qadriyatlarning shakllanishi jarayoni o'z qonuniyatlariga, xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlardan biri ularning tarixan shartlanganligi bilan bog'liq. Boshqacha aytadigan bo'lsak, milliy qadriyatlar davr talablariga monand ravishda o'zgaradi, bu talablarga mos tushmagan qadriyatlar

fursat o'tib, o'z ahamiyatini yo'qotadi va eskiradi. Mudom ijtimoiy progressga, bunyodkorlikka, insonparvarlikka undab kelgan, zamona talablari o'zgargan bo'lsa-da, o'z qimmatini va ijtimoiy ahamiyatini yo'qotmagan qadriyatlar yangi davrda ham salmog'ini saqlab qoladi. Zotan, bugun ham shunday: ijtimoiy taraqqiyotning bugungi darajasiga mos kelgan milliy qadriyatlar har tomonlama rivojlantirilmoqda, eskirganlari, qimmatini yo'qotganlari esa asta-sekinlik bilan kun tartibidan tushmoqda.

Xo'sh, milliy qadriyatlarning zamon talablariga mosligini qanday aniqlash mumkin? Buning uchun ularni bugungi kunda hukm surayotgan umuminsoniy qadriyatlar bilan qiyoslash zarur bo'ladi. Chunki umuminsoniy qadriyatlar tarix sahnasida bir necha bor sinovdan o'tgan, bir millatning emas, ko'plab millat va elatlarning tajribalari, g'oyalari, ideallarini o'zida mujassam qilgan bo'ladi. "Haqiqiy, asl milliy qadriyatlar taraqqiyotga, muayyan xalqning yuksalishiga xizmat qilgani uchun umuminsoniy qadriyatlarga zid kelmaydi. Agar zid kelsa, u eskirgan, qadrini yo'qotgan bo'lib chiqadi"¹⁸. Binobarin, ma'naviy-tarbiyaviy ishlar shaxsni milliy qadriyatlarga umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqib baho berishga, tom ma'nodagi milliy qadriyatlarni qadrlashga, o'z hayoti va faoliyatini ana shunday qadriyatlar asosida tashkil etishga odatlantirmog'i darkor. Zero professor Q.Nazarovning ta'kidlashicha, shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, nafasati va go'zalligi bilan bog'liq qadriyatlar dialektik uyg'unlikda namoyon bo'lib, ular o'z navbatida umuminsoniylikning shaxs qiyofasi bilan bog'liq namoyon bo'lish darajasini ifodalaydi¹⁹.

Uchinchidan, ma'naviy tarbiyani taraqqiyot sur'atlariga moslashtirish kerak. Postmodern jamiyat sharoitida ijtimoiy taraqqiyot misli ko'rilmagan sur'atlarda sodir bo'layotgani to'g'risida biz fikr yuritdik. Uzoqqa borishning hojati yo'q: asr boshiga qadar bir innovatsion texnologiya o'rnini boshqasi egallashi uchun 10-15 yil ketgan bo'lsa, bugunga

¹⁷ Мирзиёев Ш.М. Инсон манфаатлари ва ҳуқуқларини таъминлаш — демократик жамият асосидир // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Ж. 2. — Тошкент: Ўзбекистон, 2018. — Б. 253.

¹⁸ Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва праксиологияси. 2-китоб. — Тошкент: Маънавият, 2018. — Б. 349.

¹⁹ Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (аксиология). — Тошкент: Ўзбекистон Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004. — Б. 48.

kelib buning uchun 2-3 yil kifoya qilmoqda. Axborot olamidagi o'zgarishlarning jadal tus olganini ham qayd etib o'tdik. Ijtimoiy taraqqiyot sur'atlarining bu qadar jadallashuvi ma'naviy tarbiya shakl va yo'nalishlari, uslub va usullarining qisqa muddatda eskirib qolishiga olib kelmoqda. Ma'naviy tarbiya ijtimoiy taraqqiyot sur'atlari, talablaridan jiddiy ravishda ortda qola boshladi. Buning natijasida uning ta'sirchanlik darajasi borgan sari pasayib ketyapti.

Afsuski, bu holatni bizning mamlakatimizdagi amaliyotda ham ko'rishimiz mumkin. Taraqqiyot sur'atlarining jadalligi tufayli postmodern jamiyat sharoitida nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalari yoxud iqtisodiy munosabatlar xarakteri, balki odamlarning turmush tarzi, ularning dunyoqarashi, hayotga munosabati ham o'zgarib ketdi. Mamlakatdagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarning salmoqli qismi esa hamon eskirgan uslub va usullarda tashkil qilinmoqda. Vaholanki, endi ma'naviy mavzularga bag'ishlangan majlislar, "Namunali falonchi" qabilidagi tanlovlar, qandaydir shior ostida tashkil etiladigan ko'riklar, nima maqsadda o'tkazilayotgani tushunarsiz kitobxonlik oyliklari, muayyan rukn ostida nashr qilinadigan tavsiyalar ish bermaydi. Qog'ozlarda turli rejalar, ssenariylar, yo'l-xaritalari va hokazolar tuzish mumkin, biroq ular taraqqiyot talablariga javob bermasa, kishilarning asl maqsad va muddolari, qiziqish va intilishlaridan yiroq bo'lsa, besamar bo'ladi. Aksincha, bunday ma'naviy tarbiya teskari natijalarga olib kelishi, kishilarni ma'naviyatdan, u haqidagi mulohazalardan bezdirishi hech gap emas. Shuning uchun ham mamlakatdagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlar taraqqiyot sur'atlariga monand ravishda, kishilarning jamiyat rivojiga mutanosib tarzda o'zgarib borayotgan qarashlari va hayotiy pozitsiyasi, ehtiyojlari va manfaatlarini inobatga olgan holda tashkil etilmog'i lozim. Endi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarga tez moslashuvchan, ratsional, pragmatik, elektron xarakter berish ustida bosh qotirishimiz lozim bo'ladi. Buning uchun esa, eng avvalo, ma'naviy tarbiyaning mazmuni va o'zgarishi qonuniyatlarini fundamental tadqiqot mavzusiga aylantirish, mavzuga doir ilmiy konferensiyalar turkumini o'tkazish, tadqiqotlar va ilmiy jamoatchilik tavsiyalarini jamlash zarur. Ushbu tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi tashabbusi ostida amalga oshirilsa, samaradorlik darajasi baland bo'lardi.

To'rtinchidan, ma'naviy-tarbiyaviy ta'sir uzluksizligini ta'minlash va qamrovini kengaytirish darkor. Jamiyat va inson manfaatlari uyg'unligini ta'minlash uchun shaxs butun umri davomida jamiyat ta'siri ostida bo'lmog'i lozim. Bunday ta'sirni ta'lim va tarbiya yordamida amalga oshirish mumkinligi bizga ma'lum. Binobarin, ijtimoiy tarbiyaning boshqa shakl va yo'nalishlari kabi ma'naviy tarbiya ham inson umrining barcha bosqichlarini qamrab olmog'i darkor. Ana shundagina u shaxs kamolotini ta'minlaydigan, uni jamiyat manfaatlari sari safarbar qiladigan, turli zalolatlardan asraydigan qudratli omilga aylanadi. Ma'naviy tarbiyaning inson umrining ayrim davrlari bilan cheklanib qolishi ko'zlangan maqsadlarga erishishga xalal beradi.

Ma'naviy tarbiya qamrovi haqida ham shunday deyish mumkin. Aholining ayrim qatlamlarinigina ma'naviy jihatdan tarbiyalash imkonini beradigan tizimni samarali deb bo'lmaydi. Ma'naviy-tarbiyaviy ishlar tom ma'noda shaxsni kamol toptiruvchi omilga aylanishi uchun u nafaqat insonning butun umri davomida davom etishi, balki barcha toifadagi kishilarni tarbiyaviy ta'sir obyektiga aylantirishi darkor.

Afsuski, bu borada hali mulohaza yuritishga undaydigan muammolar talaygina. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabridagi 1059-sonli qarori bilan ma'qullangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini" olaylik [10]. Konsepsiyaning maqsadi yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikma va fazilatlarini shakllantirish bilan bog'langan. Unda oilalarda, maktabgacha ta'lim tizimida, umumiy o'rta ta'lim tizimida, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar o'rtasida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish choralari qayd qilingan. Jahon mamlakatlarida yoshlar deganda aholining 30 yoshgacha bo'lgan qismi nazarda tutilishini inobatga olsak²⁰, konsepsiya aholining nihoyatda katta qismini tarbiyaviy ta'sirdan chetda qoldirishni

²⁰ Морозов А.И. Молодежный возраст как правовая и криминологическая категория // Пробелы в российском законодательстве. Юридический журнал, 2012. — №3. — С. 169-174.

koʻzda tutmoqda. Vaholanki, inson 30 yoshdan oʻtganidan keyin ham maʼnaviy jihatdan tarbiyalab borilmogʻi kerak.

Maʼnaviy tarbiyaning umumijtimoiy qamrovini taʼminlash borasida ham ayrim muammolar mavjud. Masalan, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining maʼlumotlariga koʻra, bugungi kunda mamlakatdagi mehnat resurslari soni 19 million 78 ming kishini tashkil etadi. Shundan iqtisodiyot tarmoqlarida band boʻlganlar soni 13 million 541 ming kishidan ortadi²¹. Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridan tashqarida boʻlgan qariyb 6 milliondan koʻproq aholini maʼnaviy jihatdan tarbiyalash masalasi uzoq-yuluq ravishda, eskirgan uslublar yordamida olib borilmoqda. Boz ustiga, bu olti millionning 30 yoshgacha boʻlgan qismigina maʼnaviy tarbiya bilan qamrab olinmoqda, xolos. Bu hammasi emas. Iqtisodiyot tarmoqlarida band boʻlgan 13 milliondan oshiq kishilarning atigi 5 million 712 mingdan oshigʻigina rasmiy sektorda mehnat qiladi²². Norasmiy sektorda faoliyat koʻrsatayotgan kishilar ham aksariyat hollarda maʼnaviy-tarbiyaviy taʼsirdan chetda qolib ketmoqdalar.

Binobarin, mamlakatdagi maʼnaviy tarbiyaning tom maʼnoda uzluksizligini va keng qamrovliligini taʼminlash uchun mazkur muammolarni puxta oʻrgangan holda “Uzluksiz maʼnaviy tarbiya konsepsiyasi”ning tom maʼnoda uzluksizligini va qamrovliligini taʼminlash zarur boʻladi.

Beshinchidan, shaxsni oʻz-oʻzini maʼnaviy tarbiyalashga undaydigan samarali mexanizmni vujudga keltirish zarur. Inson maʼnaviy tarbiyaning obyektigina emas, uning subyekti hamdir. Binobarin, u nafaqat turli subyektlar tomonidan maʼnaviy jihatdan tarbiyalanmogʻi, balki oʻz-oʻzini tarbiyalashga tayyorlanmogʻi lozim. Qaysiki jamiyatda shaxsni oʻz-oʻzini tarbiyalashga undovchi mexanizm mavjud boʻlsa va undan unumli foydalanilsa, bu jamiyatda maʼnaviy tarbiya samarasidan umid qilsa boʻladi.

2017-yilning 12-yanvarida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish

hamda targʻibot qilish boʻyicha komissiya tuzish toʻgʻrisida”gi farmoyishining qabul qilinishi shaxsning oʻz-oʻzini tarbiyalashga undovchi mexanizmni takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xususan, 1677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot, Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston milliy kutubxonasi, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman va shaharlardagi taʼlim muassasalarida mavjud boʻlgan 200 ga yaqin axborot-resurs markazlari, “Kitob olami”, “Sharq ziyokori”, “Oʻz davkitobsavdotaʼminoti” majmualari²³ imkoniyatlari, mamlakatning boshqa intellektual resurslari ana shu maqsadlarga safarbar qilindi.

Biroq bu oʻrinda ikki muammoga eʼtibor berish zarurdek koʻrinadi. Birinchidan, joylarda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bilan bogʻliq tadbirlarda kampaniyabozlik, rasmiyatchilik koʻzga tashlanmoqda. Bu esa davlat rahbarining tashabbusi bilan yuzaga keltirilgan imkoniyatlardan maʼnaviy-tarbiyaviy ishlarda samarali foydalanish imkonini kamaytirmoqda. Ikkinchidan, kitob oʻqish – oʻz-oʻzini maʼnaviy tarbiyalashning yagona vositasi emas. Shaxs maʼnaviy yuksalishi uchun nafaqat adabiyot, balki sanʼat durdonalariga ham murojaat etish, madaniyat maskanlari faoliyatidan toʻlaonli foydalanish imkoniga ega boʻlmogʻi darkor.

Binobarin, shaxsni oʻz-oʻzini maʼnaviy tarbiyalashga undaydigan samarali mexanizmni vujudga keltirish masalalariga bagʻishlangan maxsus ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish, uning natijalarini Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilish maqsadga muvofiq boʻladi.

Oltinchidan, maʼnaviy tarbiya bilan shugʻullanadigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zaruriyati mavjud. Albatta, mahalla, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumtaʼlim maktablari, oʻrta maxsus taʼlim maskanlari, oliy taʼlim muassasasi, mehnat jamoasi, davlat hamda jamoat tashkilotlari va shu kabilarda maʼnaviy-tarbiyaviy faoliyat bilan

²¹ 2019 yilda Ўзбекистоннинг ишсизлик даражаси канча? // www.mehnat.uz (2020 йил 4 февраль).

²² Oʻsha asar

²³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармойиши. “Китоб маҳсулотларини chop этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”// Халқ сўзи (2017, 13 январь).

ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasidan, metodologiyasi va praksiologiyasidan voqif mutaxassislar shug'ullanmoqlari lozim. Ma'naviyat va uning jamiyat hayotidagi o'rni, genezisi va rivojlanish davrlari, qonuniyatlari, kategoriyalari va funksiyalari, ma'naviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur bilmagan kishi bu jarayonning natijadorligini ta'minlay olmaydi. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2021-yil 19-yanvar kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining videoselektor tarzida o'tkazilgan majlisining ijrosi yuzasidan OAK Rayosatining 2021-yil 30-yanvardagi qarori bilan Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari ro'yxatiga "Ma'naviyat tarixi va nazariyasi", "Ma'naviy tarbiya" hamda "Ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar" ixtisosliklari tasdiqlandi. OAK Rayosatining qarori (30.06.2021, №302/3) bilan Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzurida mazkur ixtisosliklar bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash tuzildi. Mazkur ilmiy kengashga "Ma'naviyat tarixi va nazariyasi", "Ma'naviy tarbiya" va "Ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar" ixtisosliklari bo'yicha dissertatsiyalar himoyasini o'tkazishga ruxsat berildi²⁴.

Mamlakatimizda ko'p yillardan buyon "60112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"dan mutaxassislar tayyorlab kelinadi. Ushbu ta'lim yo'nalishining tasdiqlangan malaka talablarida milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati, jumladan, axborot-resurs markazlarida, nashriyotlarda, ommaviy axborot muassasalarida, turli tadbirkorlik subyektlarida, nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, ma'naviyat va ma'rifat markazlarida ishlashni qamrab olishi ta'kidlangan. Bakalavrlarning ma'naviy-ma'rifiy sohadagi kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablaridan biri ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha qobiliyatga ega bo'lish bilan bog'langan. Binobarin, ma'naviy-tarbiyaviy ishlar samarasini ta'minlash aynan ana shu mutaxassislar zimmasiga yuklangan.

²⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий Аттестация комиссиясида 2021 йил 1-ярим йиллигида амалга оширилган ишлар натижалари тўғрисида маълумот // <https://oak.uz/pages/6918>.

Mazkur ta'lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan o'quv rejasida ma'naviyat va ma'naviy tarbiyaga bevosita yoki bilvosita daxldor o'quv fanlarini ko'paytirish zarur. Oliy ta'lim tizimini isloh qilish davomida ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar va magistrlar tayyorlash jarayonini ham qayta ko'rib chiqish rejalashtirilayotganidan xabardormiz. Shu munosabat bilan magistraturada "Ma'naviy tarbiya" bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Yakuniy qism. Xulosa qiladigan bo'lsak, postmodern jamiyat sharoitida shaxs hayotiy maqsadlarining o'zgarib borayotgani, tafakkurining fragmentar xarakter kasb etayotgani, hayotiy pozitsiyasiga putur yetayotgani, mustaqil inson sifatida kamol topishi sekinlashayotgani ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Buning uchun ma'naviy tarbiya qadriyatlarni psevdoadriyatlardan ajrata bilish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qilishi, taraqqiyot sur'atlariga mos bo'lishi, uzluksiz va keng qamrovli bo'lishi, o'z-o'zini tarbiyalashga undovchi mexanizmga tayanishi, malakali, intellektual salohiyati baland mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Albatta, buning uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur"²⁵.

²⁵ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2021. — Б. 270.